



## URUG'LIK MATERIALLARDAN DON SIFATI TAXLIL UCHUN NAMUNA OLISH TARTIBI

Xoliqov Muxridin Baxromjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasida o'qituvchisi

[muhriddinxoliqov995@gmail.com](mailto:muhriddinxoliqov995@gmail.com)

**Annotatsiya:** Taxlilni nechog'liq to'g'ri chiqishi, o'rtacha namunani to'g'ri olinganligi bilan belgilanadi. Agar namunalar noaniq yoki noto'g'ri olinsa, xamma taxlillar natijasi ishonchli bo'lmaydi, taxlilni qaytarilgan yoki urug'likni sifatiga noto'g'ri xulosa berilishiga olib keladi, shuning uchun taxlilga urug'liklardan namunalar olishda mavjud barcha qoidalarga to'la amal qilishlik lozim.

**Kalit so'zlar:** Urug'lik, unuvchanlik, laboratoriya, o'rtacha namuna, unuvchanlik, don partiyalari, namuna olish shubi.

**Аннотация:** Точность анализа определяется правильным отбором средней пробы. Если пробы взяты неаккуратно или неправильно, то результаты всех анализов будут недостоверны, анализ будет возвращен или будет дано неверное заключение о качестве посевного материала, поэтому анализ выполнен по всем правилам отбора проб из семени., должны быть соблюдены.

**Ключевые слова:** Семена, плодородие, лаборатория, средняя проба, плодородие, партии зерна, пробоотборник.

**Annotation:** The accuracy of the analysis is determined by the correct sampling of the average sample. If the samples are taken inaccurately or incorrectly, the results of all analyzes will be unreliable, the analysis will be returned or an incorrect conclusion on the quality of the seed will be given, so the analysis is full of all the rules for taking samples from seeds must be followed.

**Key words:** Seed, fertility, laboratory, average sample, fertility, grain batches, sampling shed.

Dala ekinlarining hosildorligi va mahsulotning sifati ekish uchun ishlatiladigan urug'ning urug'lik sifatlariga bog'liqdir. Urug' tirik organizm hisoblanib, uning murtagidan kelgusida o'simlik rivojlanadi. Dala ekinlaridan yuqori hosil olishda birinchi navbatda urug'lik materialning sifat ko'rsatkichlariga jiddiy e'ribor berish lozim. Urug'lik materiallarning sifat ko'rsatkichlari (unuvchanlik, tozaligi, namligi, 1000 dona don og'irligi, va x.k.)ni aniqlashda urug'chilik fermer xo'jaliklari va urug'lik tayyorlovchi tashkilotlarda ekish uchun tayyorlangan urug'liklar to'lasidan, partiyasidan aloxida-aloxida taxlil uchun o'rtacha namunalar (quritib, tozalangan, saralangan kasallik va zararkunandalarga qarshi dorilangan urug'liklardan) olinadi.

Taxlillar laboratoriya hodimlari tomonidan o'tkaziladi. Urug'lar to'dalar (partiyalar) bo'yicha tayyorlanadi, sifati bo'yicha bir xil bo'lib bitta kuzatuv xujjati bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa (muvofiqlik sertifikatini) urug'lik qancha miqdorda bo'lishidan qat'iy nazar bitta to'da (partiya) hisoblanadi.

*Urug'liklarning sifat korsatgichlari (O'zDst 2823:2014. O'zstandart agentligi.*

29.04.2014 № 05-542)

Urug' kategoriyasi	Navning tozaligi kamida %	Ekinlarning qorakuya bilan zararlanganligi, ko'pi bilan %	Urug' tozaligi kamida %	Boshqa ekinlar urug'larining miqdori, ko'pi bilan		Aralashmalar ko'pi bilan %		Unuvchanlik kamida %
				jami	shu jumladan begona o't urug'lari (dona)	qora kuya qopchalari	spora shoxchalari	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
<b>Bug'doy va polba</b>								
OU	99,7	0/0	99	8	3	0	0	95
EU	99,7	0,1/0	99	10	5	0	0,01	92
R <sub>1</sub>	98	0,3/0,1	98	40	20	0,002	0,03	92
R <sub>2</sub>	95	0,5/0,3	97	200	70	0,002	0,05	87

Namuna taxlilari davlat standartlari talabi asosida bajarilishi lozim. Urug'liklarning nav tozaligi dala kuzatuvi (aprobasiyasi) asosida xosil pishishi (mum pishishi) davrida aniqlanadi.

Taxlilni nechog'liq to'g'ri chiqishi, o'rtacha namunani to'g'ri olinganligi bilan belgilanadi. Agar namunalar noaniq yoki noto'g'ri olinsa, xamma taxlillar natijasi ishonchli bo'lmaydi, taxlilni qaytarilgan yoki urug'likni sifatiga noto'g'ri xulosa berilishiga olib keladi, shuning uchun taxlilga urug'liklardan namunalar olishda mavjud barcha qoidalarga to'la amal qilish lozim. Namunalarni mutaxassislar oladi. Urug'lik turlari bo'yicha kontrol birlik va o'rtacha namuna olish miqdori 2-jadvalda keltirilgan, shuningdek jadvalda taxlil uchun olinadigan namunalar miqdori ham keltirilgan.


*Kontrol birlik va o'rtacha namuna miqdori (O'zDst 2823:2014. O'zstandart agentligi.*

29.04.2014 № 05-542)

№	Ekin turi	Bitta namuna olinadigan urug' miqdori (tn)	Taxlil uchun olinadigan namuna miqdori (gr)	
			Xaltada	Idishda
1	Bug'doy	60	1000	450
2	Arpa	60	1000	450
3	Jo'xori	10	250	250
4	Soya	60	1000	300
5	Mosh	10	500	50
6	Loviya	10	1000	50
7	Sholi	60	1000	450
8	Javdar	60	1000	450
	Tritikali	60	1000	450



Urug'larning tozaligi, unuvchanligi, 1000 dona urug' vazni, namligi, zararkunandalar



1-rasm. Don shuplari va cho 'mich:  
1-vagon konus shuplari; 2-qop shupi;  
3-silindr shup; 4-cho 'mich.

bilan zararlanganlik darajasi, kasalliklarga chalinganligini aniqlash uchun urug'lardan namuna olinadi. Biror to'plamdagi urug'larning sifati o'sha to'plamdan o'rtacha namuna olish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha namuna katta rug' o'plami xususiyatlarini tavsiflaydigan kichik urug' namunasidir. Urug' to'plami biror ekin, nav, reproduksiyaning toza nav kategoriyasidagi ma'lum fizikaviy sifatlarga ega bo'lgan, ma'lum yilgi hosildan va bir nav o'simlikdan olingan muayyan og'irlik miqdoridagi urug'dir. Urug' to'plami katta bo'lsa, ayrim qismlarga, ya'ni nazorat birliklarga bo'linadi. Har xil ekinlar urug'larining to'plami turli katta-kichiklikda bo'ladi. Urug' to'plamining og'irligi ko'rsatilgan nazorat birlikdan ortiq bo'lsa, bu to'plam ikkita yoki undan ko'p nazorat birlikka bo'linadi va ularning har qaysisidan o'rtacha namuna olinadi. O'rtacha namuna urug' to'plami yoki nazorat birlikning turli joyidan (chuqurroqdan) olinadi. Namunalar noksimon, naysimon va maxsus asboblari (1-rasm) bilan qo'lda olinadi (2-jadval). Bizga ma'lumki, urug'lar omborxonada qoplangan holda saqlanayotgan bo'lishi yoki

omborxonada to'kib qo'yilgan uyumlar shaklida, vagonlarda va mashinalarda keltirilgan bo'lishi mumkin. Agar urug'lar qoplarda saqlanayotgan bo'lsa, namunalar quyidagicha olinadi. 10 ta qopdan iborat urug' to'plamidan namuna har bir qopning uch joyidan - usti, o'rtasi, tagidan, 25 tagacha qopdan iborat to'plamdan har bir qopdan, 100 tagacha qopdan iborat to'plamdan har qaysi beshinchi qopdan va 100 tadan ko'p qopdan iborat to'plamdan namuna olish joyini navbatlashtirib har qaysi o'ninchi qopdan olinadi. Namuna olish uchun maxsus qop shupi ishlatiladi. Avtomashina va vagonlardan namunalar noksimon shup bilan beshta har xil joydan va uchta chuqurlikdan, jami 15 taga yetkazib olinadi. Omborlarda noksimon shup bilan besh joydan: burchaklardan, o'rtadan va 3 ta chuqurlikdan, ya'ni yuzadan, 10 sm chuqurlikdan, o'rtasidan va poldan 10 sm balandlikdan, jami 15 taga yetkazib olinadi.

Asosiy namunadan tahlil uchun o'rtacha namuna ajratiladi. O'rtacha namuna ikkita olinadi. Birinchisi urug'ning tozaligi, unuvchanligini, 1000 donasining vazni va boshqa sifatlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Ikkinchisi urug'ning namligi va zararkunandalar bilan zararlanganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Tahlil uchun olinadigan o'rtacha namuna har xil og'irlikda bo'ladi. Ko'p g'alla o'simliklari uchun olinadigan o'rtacha namunaning og'irligi 1000 gramga teng bo'ladi.

Asosiy namunadan o'rtacha namuna quyidagi tartibda olinadi. Asosiy namuna urug'lari stolga (faner, karton taxta ustiga) to'kilib, yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra urug'lar chizg'ich bilan tekislanib, juda yirik urug' ekinlar (yeryong'oq, burchoq, no'xat va



boshqalar uchun) urug'i qalinligi 5 sm gacha keladigan kvadrat va qolgan ko'pchilik ekinlarning qalinligi ko'pi bilan 1,5 sm keladigan kvadrat ko'rinishida yoyib qo'yiladi.

Hosil bo'lgan urug' kvadrati (2-rasm) chizg'ich bilan butsimon qilib kesib, to'rtta uchburchakka bo'linadi. Qarama-qarshi tomondagi ikkita uchburchakdagi urug' olib tashlanadi. Qolgan ikkita uchburchakdagisi esa bir-biriga qo'shilib, yaxshilab aralashtiriladi, yana tekislanib, to'rtta uchburchakka bo'linadi. Qolgan urug'lar ikkita o'rtacha namuna tuzish uchun yetarli miqdorga kelguncha shu tariqa bo'linaveradi. Ana shundan keyingi hosil bo'lgan kvadratning ikkita qarama-qarshi tomonida joylashgan uchburchakdagi urug'lar bitta o'rtacha namuna tuzish uchun, qolgan urug'lar ikkinchi o'rtacha namuna tuzish uchun bir-biriga aralashtiriladi.



2-rasm. O'rtacha namuna tanlab olish.

Urug'ning tozaligi va unuvchanligi taxlili uchun birinchi o'rtacha namuna gazmol, xaltachaga solinadi va uni ichiga yorliq (etiketka) (yorliqda ekin turi, navi, avlodi, partiyasi, qayerdan olingani, hosil yili, olingan kun, oy, yil, va x.k.) yozilib solib qo'yiladi. Xaltani og'zi kanop ip bilan bog'lanib, ipning uchlari plombalab qo'yiladi.

Urug'ning namligini aniqlash uchun mo'ljallangan ikkinchi namuna toza shishaga solinib, og'zi tiqin (so'rg'ich, parafin) bilan maxkam berkitiladi. Birinchi namunaga qanday yorliq osilgan bo'lsa, shishaga xam huddi shunday yorliq yopishtirib qo'yiladi. Agar urug'ning kasalliklar bilan zararlangan yoki zararlanmaganligini taxlil qilinadigan bo'lsa – uchinchi namuna (og'irligi 200 gr) olinadi, u ham pishiq qog'oz yoki gazmol haltaga solinadi va ustiga yorliq ma'lumotlari yozib qo'yiladi.

O'rtacha namuna 2 sutka ichida taxlilga topshirilishi kerak, agar namuna taxlilga olib kelgungacha albatta urug'lik saqlanadigan omborda turadi. O'rtacha namunalar taxlil uchun laboratoriyaga kelganda urug'ni o'zi (idishsiz) tortiladi. Taxlilga olib kelingan o'rtacha namunalar laboratoriya jurnaliga tegishli tartibda registrasiya qilinadi.





Har yili namunalarni nomerlab qayd qilish yangidan boshlanadi. Taxlildan qolgan o'rtacha namunalar, tozalikka qilingan, ajratilganlari ham laboratoriyada shu urug'lik ekilganidan keyin ikki oy o'tguncha saqlanadi. Ikki oy muddat o'tgandan keyin urug'lik namunalari qoldiqlari tegishli tartibda hisobdan chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin;

- dala ekinlarining hosildorligi va mahsulotning sifati ekish uchun ishlatiladigan urug'ning urug'lik sifatlariga bog'liq.

- urug'lik materiallarning sifat ko'rsatgichlariga donning unuvchanligi, tozaligi, namligi, 1000 dona don og'irligi va boshqa ko'rsatgichlar kiradi.

- namuna taxlilari davlat standartlari talabi asosida bajarilishi lozim.

- taxlilni nechog'lik to'g'ri chiqishi, o'rtacha namunani to'g'ri olinganligi bilan belgilanadi. Agar namunalar noaniq yoki noto'g'ri olinsa, xamma taxlillar natijasi ishonchli bo'lmaydi, taxlilni qaytarilgan yoki urug'likni sifatiga noto'g'ri xulosa berilishiga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zDst 2823:2014. O'zstandart agentligi. 29.04.2014 № 05-542

2. Маматожиев Ш. И. и др. ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕССЫ ХРАНЕНИЯ ЗЕРНА И НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-4 (81). – С. 75-78.

3. Anvarjonovich D. Q., Ogli X. M. B. The effect of grain moisture on grain germination during grain storage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 418-421.

4. Idrisov X., Matholiqov R., Xoliqov M. KUZGI BUG 'DOYDAN KEYIN EKILGAN MOSH NAVLARINING SIMBIOTIK FAOLIYATINI O'RGANISH //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 51-56.

5. Маматожиев Ш. И. и др. ПРЕИМУЩЕСТВА НОВОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ПРИЕМКЕ ЗЕРНА //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-2 (81). – С. 96-99.

6. Davronov Q. A., Xoliqov M. B. O. G. L. KUZGI BUG 'DOY NAVLARINI SAQLASH DAVRIDA URUG 'LIK NAMLIGINI UNUVCHANLIGIGA TA'SIRINI O 'RGANISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 1318-1325.

7. Idrisov X., Matholiqov R., Xoliqov M. SUG 'ORILADIGAN O 'TLOQI BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH (PHASELUS AUREUS PIPER.) NING "NAVRO'Z" NAVI SIMBIOTIK FAOLIYATINI O'RGANISH //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 5-10.

8. Idrisov X., Matholiqov R., Xoliqov M. MOSHNING "DURDONA VA NAVRO'Z" NAVLARI FOTOSINTETIK FAOLIYATIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORINING TA'SIRINI O 'RGANISH //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 11-17.



9. Odiljon o'g'li M. O. et al. Effects of Irrigation with Mineralized Waters on Plants and Soils //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 26-30.

10. Idrisov X., Matholiqov R., Xoliqov M. SOYA ZARARKUNANDALARI VA UYG'UNLASHGAN KURASH CHORALARI //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 64-72.

11. Bakhromjon o'g'li K. M. Treatment of Winter Wheat Seed Materials with Pesticides //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – Т. 14. – С. 18-21.

12. Закирова С.Х., Низомиддинова М.Ш., Мукимов З.А., Жалилов Э.К. Пески центральной Ферганы // Экономика и социум. 2021. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/peski-tsentralnoy-fergany> (дата обращения: 30.03.2023).

13. X.A. Idrisov, Z. Mukimov va boshqalar. Results of Analytical Study of Growth, Development and Grain Yield of Mung Bean (*Phaseolus Aureus Piper*) Varieties. Turkiya. Vol.37, No.3, 2022. 8880-8886. 2022 y.

14. N.I. Teshaboyev, Mukimov Z., A. Iminchayev, Sh. Sh. Muhammadjonova. EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD. 1 tom. 326-331 bet. Uzbekistan. 2021/6.

15. Mukimov, Zoxidjon Alijonovich. G'o'za qator oralariga birinchi ishlov berishda qatqaloqni yumshatishning ahamiyati // oriens. 2022. №10. Url: <https://cyberleninka.ru/article/n/g-o-za-qator-oralariga-birinchi-ishlov-berishda-qatqaloqni-yumshatishning-ahamiyati> (дата обращения: 30.03.2023).